

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.03.2023.T.03.06  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**«MINERAL RESURSLAR INSTITUTI» DM**

**NASIMOV JAXONGIR AKROMOVICH**

**OLMOSLI KOLONKALI BURG‘ILASHDA  
KERN VA SHLAM NAMUNASINI OLISHNING SIFATINI  
MIQDORIY BAHOLASH**

**04.00.15 – Geologiya razvedka ishlari texnologiyasi va texnikasi**

**texnika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

UO‘K: 622.243.57

**Falsafu doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

<b>Nasimov Jaxongir Akromovich</b> Olmosli kolonkali burg‘ilashda kern va shlam namunalari olishning sifatini miqdoriy baholash .....	3
<b>Насимов Жахонгир Акромович</b> Количественная оценка качества отбора керновых и шламовых буровых проб при алмазном колонковом бурении .....	21
<b>Nasimov Jakhongir Akromovich</b> Quantitative estimation of the core and cuttings recovery quality on diamond core drilling .....	39
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati</b> <b>Список опубликованных работ</b> <b>List of published works.....</b>	41

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI**  
**ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.03.2023.T.03.06**  
**RAQAMLI ILMIY KENGASH**

«MINERAL RESURSLAR INSTITUTI» DM

**NASIMOV JAXONGIR AKROMOVICH**

**OLMOSLI KOLONKALI BURG‘ILASHDA**  
**KERN VA SHLAM NAMUNASINI OLIHNING SIFATINI**  
**MIQDORIY BAHOLASH**

04.00.15 – Geologiya razvedka ishlari texnologiyasi va texnikasi

**texnika fanlari**  
**bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PHD/T3627 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi «Mineral resurslar instituti» davlat muassasida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.gpnmir.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Djurayev Rustam Umarxanovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:** **Zokirov Azamjon Alimdjanovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Baratov Baxtiyor Nusratovich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

**Yetakchi tashkilot:** **“Regionalgeologiya” DUK**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2023.T.03.36 raqamli Ilmiy 2024-yil «27» mart soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani Universitet ko'chasi 2. Tel./faks: (71) 246-46-00, (71) 227-10-32 e-mail: tstu\_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat Texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (71) raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Tashkent shahri, Olmazor tumani Universitet ko'chasi 2. Tel.: (71) 246-46-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « 6 » 03- da tarqatildi.  
(2024-yil « 6 » 03- da 2 raqamli reestr bayonnomasi)



**J.B. Toshov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori

**T.O. Komilov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

**O.G' Hayitov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, geologiya-mineralogiya fanlari doktori

## KIRISH (falsafa doktori PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon amaliyotida qattiq turdagi foydali qazilmalarni kolonkali burg'ilash orqali izlash va qidiruv ishlarida yer qa'ridan tog' jinsi namunalari kern va shlam ko'rinishida olib chiqish, geologik qirqimni yanada aniqroq tuzish, foydali qazilma zahirasini va uning joylashuv sharoitlarini yuqori darajada aniqlash asosiy ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan, qattiq foydali qazilma konlarini sanoat miqyosida qazib olishga jalb etish uchun ma'lum mezonlar ishlab chiqish, shuningdek, kolonkali burg'ilash sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va yangi texnika, texnologiyalarni qo'llash bilan quduqdan olinayotgan burg'ilash namunalari sifat ko'rsatkichlarini miqdoriy baholash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Dunyoda geologik-qidiruv quduqlarini kolonkali burg'ilash sifatiga ta'sir etuvchi omillarni baholashning miqdoriy mezonlari va kern, shlam namunasini olishning sifatini miqdoriy baholash bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunday ilmiy tadqiqotlar, pirovardida, yer qa'rini geologik o'rganish va qattiq foydali qazilma konlarini sanoat miqyosida qazib olishga tayyorlash vaqtini qisqartirish, kapital xarajatlarni miqdorini optimallashtirish, mineral xomashyo bazasini kengaytirish, shuningdek burg'ilash-texnologik tizimlarining konditsion kern olish imkoniyatiga qarab geologik qidiruv obyektini investitsion faoliyat olib borish uchun tanlab olish maqsadida olmosli kolonkali burg'ilashda kern va shlam namunasini olishning sifatini miqdoriy baholashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda yer qa'rini geologik o'rganish uslublari, ish hajmi, sifati va uning natijalari ishonchligini baholashning obyektivligini oshirish bo'yicha «Raqamli geologiya» formatidagi chora-tadbirlar majmuini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot Strategiyasida «...iqtisodiyot uchun zarur mineral xom ashyo bazasini kengaytirish»<sup>1</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda, kern va shlam namunalari sifatini tezkor baholash tamoyillarini qo'llash orqali olmosli kolonkali burg'ilashdagi natijalar to'liqligini, ishonchligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqotlar olib borish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi №PF-60-son «2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni hamda 2018 yil 1 martdagi №PQ-3578-son «O'zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2021 yil 21 apreldagi №PQ-5083-son «Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral-xom ashyo bazasini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlarida, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi №PF-60 son «Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning VII – «Yer to'g'risidagi fanlar» (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral-xom ashyolarni qayta ishlash) ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Qidiruv burg'ilash sifatini boshqarish nazariyasini ishlab chiqish va uning tizimli tahliliga Shamshev F.A., Kozlovskiy Ye.A., Xramenkov V.G., Ryabchikov S.Ya., Bashkatov D.N., Vozdvijenskiy B.I., Volkov S.A., Sulakshin S.S., Pitserskiy V.M., Komarov A.M., Vlasyuk V.I., Rebrik B.M., Brajnikov V.A., Kardish V.G., Gafiyatullin R.X., Eygeles R.M., Vorob'yev G.A., Novojilov B.A., Shelkovnikov I.G., R. Hartley, J. Orpen, Ch. Wang, D. Valis, J. Brun Mangs, L. Weitang, A. Ersoy, R. Pessier, R. Waughman, H. Zhu va boshqalar ulkan hissa qo'shishgan.

Qidiruv burg'ilash jarayonini optimallashtirish masalalari qator O'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan bulardan: Abdumajitov A.A., Raximov A.K., Mamadjanov U.D., Steklyanov B.L., Raximov A.A., Djurayev R.U., Muratov N.D., Poshenko A.V., Breus S.A., Lebedinskiy G.L. va boshqalar.

O'tgan yillardagi tadqiqotlar, eng avvalo burg'ilash vositalari texnik-texnologik yechimlarini tadbiq qilishda qulay va noqulay geologik sharoitlarga xos belgilar turkumini o'rganish va tahliliga bog'ishlangan.

Ko'p yillik tadqiqotlarga qaramasdan, burg'ilashning yakuniy materiallari sifatini qazilma jinslarni parchalovchi instrumentning kovjoyda ishlash vaqtiga va burg'ilash rejim parametrlariga ko'p omilli korrelyatsion bog'liqligi hamda o'zaro ta'sirini o'rganish muammolari to'liq hal etilmasdan qolmoqda.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalar bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti «Mineral resurslar instituti» DMning ilmiy-tadqiqot ishlari tematik rejasining: 874-sonli «Geologiya qidiruv burg'ilashning zamonaviy texnika va texnologiyasi bo'yicha uslubiy tavsiyalar»; 944-sonli «Kichik o'lchamdagi burg'ilash uskunasini yaratish va ishlab chiqarishga tadbiq etish»; 1216-sonli «Siqilgan havo bilan teskari oqimda burg'ilashning takomillashgan majmuini yaratish va ishlab chiqarishga tadbiq etish» va 1507-sonli «Cho'kindi tog' jinslari majmuasida qo'shquvurli kolonkaviy to'plam bilan burg'ilash hamda shlamdan jadal tozalash texnologiyasini ishlab chiqish» loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Markaziy-Qizilqum va Toshkent oldi mintaqalarida qattiq turdagi foydali qazilmalar uchun quduqlarni olmosli kolonkali burg'ilashda kern va shlam namunalari olishning sifat ko'rsatkichlarini miqdoriy baholash mezonlarini ishlab chiqish orqali geologiya qidiruv ishlari ishonchligini oshirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

qattiq foydali qazilmalar uchun geologik qidiruv quduqlarini burg'ilash ishlarini tashkil etishning iyerarxik darajasini va tizimli birlik elementlarini tahlil qilish;

sifatni ta'minlovchi burg'ilash texnologiyasini tizimli tahlil qilish bo'yicha yangi mezonlarni ishlab chiqish;

burg'ilash texnologik vositalarini sifat mezoni bo'yicha optimallashtirish tamoyillarini aniqlash va burg'ilash ishlari sifatini tezkor nazorat qilish uslubini ishlab chiqish;

geologiya qidiruv quduqlarini burg'ilash jarayonini masofadan boshqarish imkoniyati istiqbollarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasining Markaziy-Qizilqum va Toshkent oldi mintaqalaridagi geologiya-qidiruv ishlari maydonlarida quduqlarni olmosli kolonkali burg'ilashda olinadigan kern va shlam namunalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** quduqlarni burg'ilashda qo'llanilayotgan texnika va texnologiyaning hosil bo'layotgan tog' jinsi namunasiga o'zaro ta'sirini o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida laboratoriya sharoitidagi tajriba va sanoat miqyosidagi tadqiqotlar, zamonaviy kompyuter dasturlari asosida eksperimental tahlil, shuningdek, kern va shlam namunasini olishning sifatini miqdoriy baholash muammolari bo'yicha mavjud ma'lumotlarni solishtirish kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yaxlit, kam darzlangan, darzlangan va ko'p darzlangan tog' jinslaridan olinayotgan kern, kern-shlam va shlam namunalari sifatining burg'ilash texnologik rejim parametrlariga o'zaro korrelyatsion bog'liqligi aniqlangan;

kern, kern-shlam va shlam namunalarning hosil bo'lishi, saqlanishi va isroflanishi koeffitsiyentlari ko'rinishidagi geologik namuna olish sifatining miqdoriy mezonlari aniqlangan;

burg'ilash namunalardagi tasodifiy ( $S_s$ ), tizimli texnik-texnologik ( $S_t$ ) va geologik xatoliklar ( $S_i$ ) negizida geologik ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi bo'yicha burg'ilash sifatini optimal boshqarish imkoniyatlari asoslangan;

gidravlikallashtirilgan burg'ilash uskunalarning bilvosita indikator xossalriga ko'ra burg'ilash sifatini tezkor nazorat qilish maqsadida texnik-texnologik qaror qabul qilish uchun elementlarning «vazndorlik» koeffitsiyentini hisoblash uslubini ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

gidravlikallashtirilgan burg'ilash uskunalari konstruktiv jihatlarini takomillashtirish maqsadida quduqlarni burg'ilash texnik-texnologik majmui axborotlilik xususiyatlari sifatini baholash bo'yicha miqdoriy mezonlar ishlab chiqilgan;

gidravlikallashtirilgan burg'ilash uskunalarda sifat elementlari «vazndorlik» koeffitsiyentini qo'llash orqali burg'ilash jarayonini boshqarish uchun informasion-kommunikatsion modul yaratilgan;

geologiya qidiruv quduqlarini kolonkali burg'ilashda siqilgan havoning teskari oqimini hosil qilish bilan geologik qirqimni yanada aniqroq tuzish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotning ilmiy mazmuni, natijalar va xulosalarining ishonchliligi 19 ta geologik qidiruv quduqlaridan olingan ma'lumotlar va nazariy hisob-kitoblar, kompyuter va matematik modellashirilgan ma'lumotlarning, ishlab-chiqarishdagi eksperimentlar va tajribalardan olingan ma'lumotlar bilan o'zaro yaqinligi orqali tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kernning hosil bo'lishi –  $K_{ko}$ , kernning saqlanishi –  $K_{sk}$ , kernning chiqarib olinishi –  $K_{ok}$ , kernning isroflanishi –  $K_{kp}$ , kernshlamning chiqarib olinishi –  $K_{oksh}$  va shlam namunalari ko'tarib olinishi –  $K_{osh}$  koeffitsiyentlarini aniqlashga asoslangan va yakuniy natijaga erishishga yo'naltirilgan qidiruv burg'ilashning oqilona texnologiyasi uslubiy asoslangan, texnik-texnologik yechimlarning iqtisodiy va geologik-uslubiy asoratlarini bashoratlash imkonini beruvchi burg'ilash natijalari sifatini baholashning muhandislik yondashuvlari majmui ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, bunda burg'ilash qurilmalarining natijalar aniqligi, ishonchliligi va to'liqligiga ko'rsatayotgan ta'sirini inobatga olgan holda texnik vositalar elementlarini oqilona to'plamlashtirish nuqtai-nazaridan burg'ilash vositalarining boshqa elementlari bilan kombinatsiyalashgan maxsus burg'ilash qurilmasini loyihalashtirishdagi funksional imkoniyatlarini baholashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Burg'ilash ishlari yakuniy natijalari sifatining alohida xususiyatlarini miqdoriy jihatdan ifodalash va baholash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Wireline texnologik tizimida qidiruv quduqlarini burg'ilashdan olinadigan namunalarning "vazndorlik" koeffitsiyenti «O'zbek geologiya qidiruv» AJ amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2023 yil 2 martdagi 04-0400 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, burg'ilash ishlari sifati miqdoriy baholanib, quduq bo'ylab kern olinishini 100% ga yetkazish imkonini bergan;

darzlangan, kuchli darzlangan tog' jinslari va ma'danlarini burg'ilashda namunalardan yetarlicha ma'lumotlarni olishning ehtimoliy tavsiflarini aniqlash metodikasi «O'zbek geologiya qidiruv» AJga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2023 yil 2 martdagi 04-0400 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, zamonaviy burg'ilash texnik vositalari va texnologik tizimlarini to'g'ri tanlab olish va qo'llash bilan burg'ilash unumdorligini 6,5% ga oshirish imkonini bergan;

qidiruv quduqlarini burg'ilashdan olinadigan kernlarda tizimli va tasodifiy geologik, texnik, texnologik xatoliklar hisobiga undagi geologik ma'lumotlarning ishonchliligini aniqlash tasnifi «O'zbek geologiya qidiruv» AJ amaliyotiga tadbiiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2023 yil 2 martdagi 04-0400 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, chuqur quduqlardan kern olish uchun foydalaniladigan samarador uskunalar ulushini 66% ga yetkazish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqotning natijalari ma'ruza ko'rinishida 5 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shundan 7 tasi tezislar, 6 tasi maqola ko'rinishida, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida 4 tasi va 2 tasi xorijiy jurnalda, 2 ta metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan va 1 ta patent olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (100 nomdagi) va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va muhimligi, uning o'rganilganlik darajasi, maqsadi, vazifasi, tadqiqot obyekti va predmeti asoslab berilgan, tadqiqotning ilm-fan rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan, erishilgan natijalarni ishlab-chiqarishga tadbiiq etish ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Geologik-qidiruv quduqlarini burg'ilashda informatsion tizimlar qo'llanilishining o'rganilganligi**» nomli birinchi bobi uchta bo'limdan iborat bo'lib, unda burg'ilash texnologik jarayonini boshqarishda informatsion (kibernetik) tizimlar qo'llanilishining hozirgi holati batafsil tahlil qilingan va ularning sifat ko'rsatkichlarini miqdoriy baholash muammosi ko'tarilgan. Bir necha murakkab tizimlar xossalari to'g'risida ma'lumotlar berilgan, ularga ko'ra burg'ilash rejim kattaliklarini alohida-alohida rostdash samarasining yig'indisi ularni birvarakayiga rostdash samarasiga teng emas, ya'ni mexanik tezlikni oshirish burg'ilash muddatini kamaytiradi, lekin shu bilan birga burg'ilash narxini ham oshishiga olib keladi va hkz, bu esa o'qli bosim  $P$ , aylanishlar soni  $n$ , haydalayotgan suyuqlik miqdori  $Q$ , burg'ilash valining bir marta aylanishida chuqurlashtirish  $h$  rejim kattaliklarining optimal qiymatlarini topishni taqozo qiladi.

Qayd etilganidek, kolonkali burg'ilash jarayonini lokal boshqarishda sifat nuqtai nazaridan asosiy maqsadlarni ajratib olish orqali uning texnologik jihatlarini optimallashtirish quduq halqasimon kovjoyi parchalanishi, tog' jinsini yemiruvchi asbobning kern hosil qilishi va uni kolonka quvuri ichida saqlanishi, shuningdek, quduqlarni o'tishdagi turli boshqariluvchan va nazorat qilinuvchi jarayonlarni modellashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Tasdiqlangan geologik topshiriqqa binoan, muayyan obyektida olib boriladigan burg'ilash ishlarini samarali boshqarishdan iborat bo'lgan bosh maqsad quyidagi, ikkilamchi (quyi) maqsadlarga ajratiladi: quduqni burg'ilash sifatini ta'minlash; geologik topshiriqda ko'zda tutilgan burg'ilash ishlari hajmini bajarish; burg'ilash ishlari unumdorligini oshirib, uning tannarxini tushirish; burg'ilash ishlarini xavfsiz olib borish; quduqlarni burg'ilashda atrof-muhit muhofazasi va hkz. So'ngra, ko'rsatib o'tilgan ikkilamchi

maqsadlarni, 1-jadvalda keltirilganidek, burg'ilash ishlarini boshqarish obyektlarining amaldagi ierarxik darajalari (tasarruf etishi) aniq vazifalari ko'rinishiga transformatsiya qilinadi.

1-jadval

**Burg'ilash ishlari boshqaruv obyektleri iyerarxiyasi darajalari**

Ierarxiya darajalari	Ishlar miqyosi	Ishlab chiqarishning geologik maqsadi	Ishlab chiqarishning iqtisodiy maqsadi	Checklovlar
<b>I.</b> Ishlab chiqarish geologiya uyushmasi	Bir yoki bir necha iqtisodiy tumanlar (geologik hudud)	Foydali qazilmalar zahirasini o'sishini ta'minlash	Foydali qazilmalar turlari bo'yicha zahiralarni o'stirishda xarajatlar minimalligi	Muddat, moliyalashtiruv resurslari
<b>II.</b> Geologiya qidiruv ekspeditsiyasi	Foydali qazilmalar koni (geologiya qidiruv ishlari objekti)	Asosiy ishlar objekti bo'yicha zahiralarni o'sishini ta'minlash	Asosiy ish obyektlari bo'yicha zahiralarni o'stirish qiymatini minimalligi	Ishlarni bajarish muddati, resurslar, moliyalashtirish, atrof-muhitni saqlash, ishlar xavfsizligi
<b>III.</b> Geologiya qidiruv partiyasi (burg'ilash maydoni)	Kon (geologiya qidiruv ishlari objekti), maydonlar	Geologik topshiriqni bajarish, burg'ilash ishlari geologik sifati	Ishlar tannarxini kamaytirish	Ishlarni bajarish muddati, resurslar, moliyalashtirish, burg'ilash ishlari sifat ko'rsatkichlari, ishlar xavfsizligi, atrof-muhitni saqlash
<b>IV.</b> Burg'ilash jamoasi (quduq)	Ishlar maydoni, geologik profil, quduq	Berilgan joydan vakolatli namuna olish	Ishlar unumdorligini oshirish, vaqt va materiallarni iqtisod qilish	Me'yoriy vazifalar va iqtisodiy-texnologik xarita loyihasi ko'rsatkichlari, uskunadan foydalanish va xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnoma

Boshqacha aytganda, vazifalarni bo'laklarga ajratish, toki miqdoriy ifodalangan konkret maqsadli me'yorlar olinguncha davom ettirish maqsadga muvofiq. Yuqorida keltirilgan vazifalar uchun bunday me'yorlar quyidagilardan bo'lishi mumkin: plastning joylashuv kattaliklari; quduqning tabiiy og'ish qonuniyatlari; profil loyihasini hisob-kitob qilish usuli; burg'ilash rejimi, tog' jinsini yemirish asobi va yig'masiga bog'liq ravishda og'ish qonuniyati; turli sharoitlar uchun quduq egriligini o'lchash davriyligi; quduq egriligini o'lchash vositalari; hosil bo'lgan quduq profilini loyiha bilan solishtirish natijalari; quduqni sun'iy egish texnik vositalari va boshqalar.

Burg'ilashning texnologik rejim kattaliklarini nazorat qilish va rostdash bo'yicha ishlab chiqilgan tizimlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular nafaqat ishlab chiqarishdagi hujjatlarini uzifikatsiyalash nuqtai nazaridan, balki turli ma'lumotlarni olishdagi ishonchlilikni ham ta'minlashi mumkin.

Mineral resurslar instituti (sobiq SAIGIMS) konstruksiyasiga asosan yaratilgan «O'zbekiston 2» burg'ilash jarayonini avtomatik optimallashtirish tizimi tanlangan rejimni amalga oshirib, kvalimetriyaning asosiy tamoyili: geologik maydon murakkabligidan kelib chiqqan holda, sifat xossasi – eng oliy darajada, oddiy va bo'laklarga ajralmaydigan boshqa xossalar esa – eng quyi darajalarda bo'lishi haqidagi iyerarxiya jamlanmasi xossalarini ham tasdiqlab berdi.

Ye.A. Kozlivskiy tomonidan ekstremal boshqaruv tizimlari ko'rinishidagi o'z-o'zini sozlovchi avtomatik burg'ilash tizimlarini qo'llash maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning «Qidiruv burg'ilashning sifatini ta'minlash uchun namunalash jarayoni informatsion-mantiqiy modelini ishlab chiqish» deb nomlangan ikkinchi bobida optimallashtirishning texnik-iqtisodiy mezonlari mohiyati ochib berilgan.

Tahlillar ko'rsatishicha, quduqlarni burg'ilashning ilg'or texnologiyalari va texnik vositalari paydo bo'lishi bilan «burg'ilash reysi»ga asoslangan amaldagi me'yorlar o'z mazmun-mohiyatini yo'qotdi va turli foydali qazilmalar uchun kern va shlam namunalarni olishning sifat me'yorlarini differensiyalashga ehtiyoj paydo bo'ldi. Shunga ko'ra, geologik namunalash sifatining quyidagi asosiy me'yorlari o'rnatilmoqda:

– namuna olish intervali me'yoriy ko'rsatkichlari ahamiyati, qanday turdagi texnik vositalar ishlatilishidan qat'iy nazar yakuniy natijalarning yo'l qo'yilgan xatoliklari orqali aniqlanishi lozim;

– geologiya qidiruv ishlari o'tkazilayotgan maydon uchun me'yoriy ko'rsatkichlar ma'lumotlilik va narx o'rtasidagi eng maqbul mutanosiblikda intervallarni namunalashtirish sifatini ta'minlashi lozim;

– zahiralarni hisoblashdagi konditsiya parametrlari ahamiyati, namuna to'g'risidagi mavjud ma'lumotlardan olinadigan geologik-iqtisodiy baholashning xatoliklari minimalligi ta'minlashi kerak.

Markaziy Qizilqum va Toshkentoldi mintaqasi uchun ma'dan konlarini qidirishda olinadigan burg'ilash namunalari qo'yiladigan talab turlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

**Markaziy Qizilqum va Toshkentoldi mintaqasi uchun burg'ilash namunalari olishga bo'lgan talab turlari**

Yechiladigan masalalar	Talab turlari	Baholash mezonlari
Intervalni qayta namunalash	Intervaldan minimal darajada va yetarli namuna olish	Namuna olishda yo'l qo'yilgan xatolik
Burg'ilash texnik vositalarini tanlash	Namunalash uchun o'rtacha miqdorda namuna olish	Namunalashning minimal xarajatlari
Namuna tarkibiy qismini tashlab yuborish	Minimal darajada va yetarli namuna olish	Zahiralarni hisoblashda minimal xatolik

Namunalar vakolatdorligini baholash va sifat yo'qotilishi bilan kechuvchi tanlovli yemirilishni aniqlash uchun biz quyidagi to'rt omilni hisobga olishni taklif etdik:

a) minerallarning tanlovli yemirilishi orqali hosil bo'luvchi namunalashning tizimli xatoliklari;

b) olingan namunaning butun uzunligi bo'ylab ma'dan tarkibining tarqalib ketishi oqibatidagi tasodifiy xatoliklar;

v) zahiralarni hisoblash paytida quduqdan material chiqishining va tarkibining pastligi evaziga hosil bo'luvchi tizimli xatolik;

g) zahiralarni hisoblashda namuna bir qismining tarkibini ma'dan kesishuvida tarqalib ketishi bilan bog'liq tasodifiy xatolik.

Amalda, quduq ichidagi namuna olish jarayoni boshqarilmaydi va uning tasodifiy ekanligi evaziga geologik-texnik qulay sharoitlarda umumiy xatoliklarning ustuvor joylashuvi quyidagi interpretatsiya shaklida bo'ladi:

$$S_s > S_l > S_i \quad (1)$$

bu yerda,  $S_s$  – tasodifiy xatoliklar;  $S_l$  – tizimli texnik-texnologik xatoliklar;  $S_i$  – burg'ilash namunalaridagi tanlovli yo'qotilish tufayli yuzaga keluvchi geologik xatoliklar.

Geologik-texnik sharoitlarning murakkablashib borishi bilan yuqoridagi xatoliklarning ustuvorligi ham o'zgarib boradi. Misol tariqasida, anizotrop tog' jinslari va ma'danlarni burg'ilashda (darzlangan, qatlamlashgan, slanetslashgan, g'ovakdor va hkz.) namunadagi nisbatan tez yemiriluvchi minerallarning tanlovli yemirilishi jadal yuzaga keladi, va shuning uchun ularni to'liqligini va ravonligini ta'minlay oladigan hamda tanlovli yemirilishni bartaraf etadigan texnika va texnologiyalarni qo'llashga ehtiyoj yuzaga keladi. Bunda namuna olishdagi xatoliklar ustuvorligi quyidagi tartibda joylashadi:

$$S_l > S_i > S_s \quad (2)$$

Maydalangan va tez-tez almashib turuvchi tog' jinslari va ma'danlar qatlamini burg'ilashda uzluksiz va ravon namuna olish uchun ilg'or texnologiyalarni qo'llash ishonchlilikning quyidagi ustuvorlik shaklini olishi mumkin:

$$S_l > S_i > S_s \quad (3)$$

Namunashtirishdagi xatoliklar ustuvorligi bizga, kern namunasi bilan olinadigan geologik ma'lumotning ishonchliligi bo'yicha klassifikatsiyalash imkonini beradi (3-jadval). Ishonchlilik darajasini aniqlash uchun, quyidagilarni nazarda tutuvchi, geologiya qidiruv ishlarini olib borishdan to'plangan uzoq yillik tajriba natijalaridan foydalanildi:

–  $S$ ,  $m$ ,  $d$  va  $c$  larning aniq kattaliklari noma'lumligi evaziga foydali qazilma zahirasini hisoblashdagi xatolikning haqiqiy darajasi ( $ΔQ_i$ ), hamda hisoblangan parametrlarning haqiqiy xatoligini aniqlash imkonsiz. Chunki, agar zahiraning aniq hisobi ma'lum bo'lsa, kattaliklarni aniqlashdagi xatolikni topish ham o'z ma'nosini yo'qotadi;

– yer qa'rida foydali qazilma koni zahirasini aniqlashdagi xatolikni topish imkoniyatlari cheklangan, shunday bo'lsada, zahiralarni hisob-kitobini ishonchlilik darajasini topish kon va uning alohida flanglari bo'yicha qidiruv ishlari yakunida aniqlanadi.

Masalani bunday usulda yechish, foydali qazilma zahirasi haqiqiy hajmi va uni hisoblash parametrlari maksimal va minimal qiymatlar oralig'ida bo'lishi va ularni aniqlashdagi xatolik eng musbat va manfiy kattaliklariga bog'liq ekanligi topishga undadi, ya'ni:

$$Q_{min} \leq Q_i \leq Q_{max}; \quad S_{min} \leq S_i \leq S_{max}; \quad m_{min} \leq m_i \leq m_{max};$$

$$d_{min} \leq d_i \leq d_{max}; \quad c_{min} \leq c_i \leq c_{max} \quad (4)$$

3-jadval

**Olinayotgan geologik ma'lumotning ishonchliligi jihatidan kern namunasi sinflarga ajratilishi**

Namuna sinfi	Sinflar tavsifi	Ma'lumotning ishonchlilik darajasi	Yechiladigan geologik vazifalar
I	Namuna tuzilishi, og'irligi, foydali qazilma komponentlari haqiqiy tarkibi bo'yicha ular olingan intervalga mos tushadi.	Maksimal	Juda mo'rt jinslarda muhandislik-geologik va gidrogeologik ishlarni olib borish, tog' jinslarini yotish elementlarini aniqlash
II	Namuna og'irligi, foydali qazilma komponentlari haqiqiy tarkibi bo'yicha ular olingan intervalga mos tushadi.	Yuqori	Istalgan genezisga ega qattiq foydali qazilma bo'yicha to'liq geologik ma'lumot olish
III	Namuna foydali qazilma komponentlari haqiqiy tarkibi bo'yicha ular olingan intervalga mos tushadi.	Qisman	Ko'plab cho'kindi va metamorfik konlarni qidirishda yetarli geologik ma'lumot olish
IV	Namuna hech qanday parametrlar bo'yicha u olingan oralikka mos tushmaydi	Minimal	Foydali qazilma mavjudligi to'g'risida ma'lumot. Yondosh jinslar haqida informatsiya

Taklif etilayotgan klassifikatsiyani tahlili shuni ko'rsatdiki, zahiralarning hisoblangan kengliklari ( $R_x$ ), maydonning chegaraviy kattaliklari, ma'dan tanasi qalinligi, hajmiy og'irligi va foydali komponentning tarkibi haqiqiy sonlardan iborat tasodifiy sonlar hisoblanadi. Ma'dan tanasining zaruriy kattaliklari, mohiyatan kengaytma qiymatini uning maksimal soniga nisbatiga teng bo'ladi:

$$D_x = 100 R_x / X_{max} \% \quad (5)$$

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan amaliyotning ko'rsatishicha, barcha talablarga javob beruvchi kern namunasi faqatgina, birikkan yumshoq jinslarni va ma'danlarni burg'ilashda kolonka quvuri ichida, ya'ni ham burg'ilash jarayoni ham kern hosil bo'lish jarayoni uchun qulay sharoitlarda hosil bo'ladi. Yaxlit toshdan iborat tog' jinslarini burg'ilaganda halqasimon quduq tubida (kovjoyda) hosil bo'luvchi ezg'ilovchi va yanchuvchi bosim kuchlari uning atrofiga yoyilmaydi va keranda o'zgarish ro'y bermaydi.

Olmosli kolonkali burg'ilashda tog' jinslarining parchalanishi ilk fazasida ustuncha shaklli kern hosil bo'ladi va u keyingi fazalarda ham saqlanib qoladi, bunga sabab, unda yuzaga keladigan kuchlanishlar Kulon-Mor qonuniga ko'ra quyidagi tenglikdan kichik bo'ladi:

$$\sigma^2 = 2E\gamma[\pi(1 - \nu^2)r]^{-1} \quad (6)$$

Ikkinchi fazada kernni parchalovchi yoriqlar va darzchalar paydo bo'la boshlaydi va kern bo'laklarga bo'lina boshlaydi, uchinchi fazada esa – bo'lakcha va parchalarning dumaloqlanishi, maydalanishi va ishqalanishi yuz beradi. Yemirilish toki, butun darzlik bo'ylab mitti bo'lakchalarning qo'porilib tushishi tugamaguncha davom etadi.

Kern namunasining boyishi va ifloslanishiga olib keladigan mo'rt hamda yumshoq jinslarning tanlovli ishqalanishi uchun qulay shroit uchinchi fazada, ya'ni kolonka quvuri ichidagi notekisliklarga tegib aylanish davomida uning silliqilanishi paytida ro'y beradi. Bu fazaning yakunida taranglashuv-mo'rtlashuv deformatsiyasining erkin tarzda rivojlanib ketishi va kengaytiruvchi kuchlarning paydo bo'lishi hisobiga, makroyoriqlar bo'ylab yirik qismlar va bo'laklar to'liq ajralib tushishi bilan yakunlanuvchi kernning toliquv-hajmdor yemirilishi yuzaga keladi. Materialning maydalanish va ishqalanish jarayoni ikkinchi va uchinchi fazada ham sharchali tegirmon ko'rinishida davom etadi. Ko'ndalang kesimi bir maromda bo'lgan kern bo'lak va parchalari hosil bo'lmaydi, yuqoriga ko'tarib olingan namuna shlamli, maydalab-ezg'ilangan material ko'rinishida bo'ladi. Shunday qilib, shakllanayotgan burg'ilash namunasi ko'rinishi va yemirilish mexanizmi geologik, texnik va texnologik tizim elementlarining to'g'ridan-to'g'ri ta'siri ostida bo'ladi.

Yoritilgan muammoning ayrim, konditsion kern olish murakkabliklari bilan bog'liq jihatlarni olsak, ular qo'llanilayotgan burg'ilash texnika va texnologiyalarini axborotlilik xususiyatiga ko'ra geologiya qidiruv ishlari yakuniy natijalari sifatini obyektiv baholash orqali yechilishini ko'rish mumkin. Shu maqsadda biz quyidagi miqdoriy mezonlarni taklif etdik:

$$1. \text{ Kern shakllanishi koeffitsiyenti: } K_{ko} = \frac{d_k^2 l_k}{d_k^2 l_k + (D_c^2 - d_k^2) l_p} \quad (7)$$

$$2. \text{ Kern saqlanishi koeffitsiyenti: } K_{ck} = \frac{d_k^2 l_k}{D_c^2 - l_p} \quad (8)$$

$$3. \text{ Kernni ko'tarib olish koeffitsiyenti: } K_{ok} = \frac{d_k^2 l_k - (D_c^2 - d_k^2) l_p}{D_c^2 - l_p} \quad (9)$$

$$4. \text{ Kernni yo'qotilishi koeffitsiyenti: } K_{kn} = \frac{1}{(n_k + l_{max}/l_{min})} \quad (10)$$

$$5. \text{ Kern-shlam namunasini olish koeffitsiyenti: } K_{okm} = W_\phi / W_p \quad (11)$$

$$6. \text{ Shlam namunasini olish koeffitsiyenti: } K_{om} = V_\phi / V_p K_{px} \quad (12)$$

bu yerda,  $d_k$  – kern diametri;  $D_c$  - quduq diametri;  $l_k$  – kern uzunligi;  $l_p$  – reys uzunligi;  $n_k$  – kernning butun bo'lakchalari soni;  $l_{max}$  – kernning mutlaq yo'qotilish intervali maksimal uzunligi;  $l_{min}$  - kernning mutlaq yo'qotilish intervali minimal uzunligi;  $W_f$  – kern-shlam namunasi aniq og'irligi;  $W_r$  – kern-shlam namunasining hisoblangan og'irligi;  $V_f$  – shlam namunasining aniq hajmi;  $V_r$  – shlam namunasining hisoblangan hajmi;  $K_{rx}$  – tog' jinslari (ma'dan)ning parchalanish koeffitsiyenti.

Faqat informatsion-mantiqiy modellashtirishgina, burg'ilash namunasi hosil bo'lishining ko'p omilli xususiyatlarini batafsil va obyektiv baholay oladi.

Geologiya qidiruv burg'ilashning yakuniy natijalari moddiy shakli informatsion-mantiqiy matritsa modelini quyidagi matritsalar qatori ko'rinishida keltirish mumkin:

$$MF_i = [r_i(l_n), r_i(f_s), r_i(R_o), r_i(A_v), r_i(B_{gm}), r_i(O_{av}), r_i(O_{ur})], \quad (13)$$

bu yerda,  $r_i$  – ma'lum bir sharoitlarda mantiqiy munosabatlarning mos tushishi ( $r_0$  – mos tushmaydi,  $r_1$  – mos tushadi);  $l_n$  – olinayotgan burg'ilash namunalarining chiziqli uzluksizligi;  $f_s$  – olinayotgan burg'ilash namunalarining kesma bo'yicha o'zgarishligi;  $R_o$  – burg'ilash namunalarining olinishi ravonligi;  $A_v$  – burg'ilash namunalarining tahliliy imkoniyatlari;  $B_{gm}$  – geologo-texnik sharoitlarning qulayligi;  $O_{av}$  – tahliliy imkoniyatlar chegaralanganligi;  $O_{ur}$  – joriy etish sharoitlari cheklanganligi.

Shu tarzda, geologiya qidiruv quduqlarini burg'ilashning yakuniy natijalari boshqa moddiy shakllarining ham informatsion-mantiqiy modellari quriladi. Geologiya qidiruv ishlarini tashkil etishning muayyan vaziyatlarida tahlil uchun olinayotgan natijalarning boshqa moddiy shakllari texnologik tarkibi quyidagi umumiy matritsa ko'rinishiga keladi:

$$M_{mfi} = \begin{matrix} MF_k & L_n \dots f_s \dots R_o \dots A_v \dots B_{gm} \dots O_{av} \dots O_{ur} \\ MF_{k-sh} & [r_1 \dots r_i \dots r_i \dots r_i \dots r_i \dots r_i \dots r_i \dots r_i] \\ MF_{sh} & [r_1 \dots r_i \dots r_i \dots r_i \dots r_i \dots r_i \dots r_i \dots r_i] \end{matrix} \quad (14)$$

bu yerda,  $MF_k$  – kern namunasi informatsion mantiqiy matritsali modeli;  $MF_{k-sh}$  – kern-shlam namunasi informatsion mantiqiy matritsali modeli;  $MF_{sh}$  – shlam namunasi informatsion mantiqiy matritsali modeli.

«Geologiya qidiruv quduqlarini burg'ilashda kern va shlam namunalarini olish sifatini miqdoriy baholashning yangi uslubi» nomli uchinchi bob uchta bo'limdan iborat bo'lib, unda burg'ilash jarayonini sifatini ta'minlovchi rejimning optimal qiymatlarini izlash va unumdorlik mezonini bo'yicha boshqarish hamda kuzatish uchun yaratilgan informatsion-kommunikatsion texnologiyalar tog'risida batafsil tahlil bayon qilingan.

Integratsion tizimlar nafaqat burg'illovchi xodimga imkon qadar to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi, balki, qurilmalarni tanlovli boshqarishda intellektual vositasi mavjud bo'lib, real vaqt rejimida cheksiz burg'ilash uskunalarini boshqarish imkonini berishi aniqlangan. Ular 4-jadvaldagidek tasniflangan.

U yoki bu integratsion tizimlarning sifatli namuna olish qobiliyatini opsional imkoniyatlari mavjudligiga ko'ra baholashda va ularni sinflarga mutanosibligini aniqlashda quyidagi burg'ilash sifati bilan korrelyatsion bog'liq omillar muhim sanaladi:

